

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“ IQTISODIYOT ” FAKULTETI**

**“MAKROIQTISODIY SIYOSAT VA PROGNOZLASH” KAFEDRASI**

*Qo'lyozma huquqida*  
UDK: 330.101.541.33M(575.1)

**ABDULATIFOVA MOXINUR ALISHER QIZI**

**“O‘ZBEKISTONDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI  
MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI”**

70310103 – “Makroiqtisodiyot” mutaxassisligi bo‘yicha  
magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan


**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi:**  
i.f.n., dotsent, Asqarova.M.T

**Toshkent 2024**

Dissertatsiya “Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash” kafedrasida 2024 yil \_\_\_\_ - sonli  
“ \_\_\_\_ ” bayonnomasida dastlabki himoyadan o‘tkazilgan.

Kafedra mudiri: Asqarova M.T.




21.05.2024

Imzo

sana

Ilmiy rahbar: Asqarova M.T.




21.05.2024

Imzo

sana

Magistr: Abdulatifova M.A.



21.05.2024

Imzo

sana

Dissertatsiya “Iqtisodiyot” fakultetining 2024-yil “ 21 ” 05

No 3/02 sonli bayonnomasi bilan ro‘yxatga olingan.

Fakultet dekani



v.b. X.Sh.Rahimov

## Annotatsiya

Hozirgi kunda tashqi iqtisodiy aloqalar milliy iqtisodiyotlar holatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omilga aylanib qoldi. Mana shunday aloqalarning tarkibiy qismi bo'lgan eksport har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Eksport salohiyatidan samarali foydalanish natijasida mamlakatda tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashuv barobarida resurs unumdorligi ortadi, ishlab chiqarishning umumiy hajmi oshib boradi. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, uning samaradorligini oshishi eksport amaliyotining yaxshi yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. Eksport har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, uning samaradorligini oshishi eksport amaliyotining yaxshi yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. Eksport darajasining o'sishi to'lov balansining mustahkamlanishiga, xorijiy valyuta tushumlari va zahiralarining ko'payishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda eksport salohiyatini yuksaltirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti hajmini oshirish ustuvor masala sifatida qaralmoqda O'zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirishdagi muammoli vaziyatlarni kamaytirish choralarini ko'rish bugungi kunda eksport va tashqi savdo tizimidagi dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordim. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladim. Ilmiy ishning amaliy ahamiyatini oshirish uchun, respublikamiz iqtisodiyotidagi eksport faoliyati bilan bog'liq muammoli vaziyatlar xolati va ularni bartaraf etish qay darajada amalga oshirilayotganini statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik taxlil usullari yordamida o'rgandim. Undan tashqari xorijiy eksportchilarni bu sohadagi tajribasi bilan ham tanishib chiqdim. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida eksport faoliyatini rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish yo'llari bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdim.

**Kalit soʻzlar:** *Eksport faoliyati, eksport salohiyati, eksport qilish, korxonalar, tashqi va ichki muhit, tovarlar, xizmatlar, investitsiya, texnologiyalar, tashqi bozor, tranzit, reeksport, sanoat, sanoat mahsulotlari, qishloq xoʻjaligi, sovuq zanjir tizimi, muzlatgichlar, vositachilar, iqtisodiyot, eksportni cheklash, xom ashyo, oziq-ovqat, tovarlar turi, eksportchi korxonalar, eksport oldi operatsiyalar, eksportni qoʻllab quvvatlash, moliyaviy resurslar.*

### **Annotation:**

Currently, foreign economic relations have become an important factor influencing the state of national economies. Export, which is a component of such relations, occupies a special place in the economic development of every country. resource productivity increases, the total volume of production increases. Acceleration of economic growth, development of production, increase in its efficiency is connected with good implementation of export practice. Export occupies a special place in the economic development of every country. Acceleration of economic growth , development of production, increase in its efficiency is connected with good implementation of export practice. An increase in the level of exports will lead to a strengthening of the balance of payments, an increase in foreign currency receipts and reserves. Based on this, it is necessary to increase the export potential in our country, diversify production, and establish new production facilities based on modern technologies. Increasing the volume of exports of valuable products is considered a priority issue. Taking measures to reduce problematic situations in the development of export activities in Uzbekistan is one of the current topics in the export and foreign trade system today. Therefore, during the research, I carried out detailed work within the scope of the topic. Including other research related to the topic I prepared a literature review after studying the works, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local regulatory documents on the topic. In order to increase the practical importance of the scientific work, I studied the situation of problematic situations related to the export activity in the economy of our republic and the extent to which their elimination is carried out using econometric analysis methods based on statistical data. Based on the studied and analyzed information, I developed scientific and practical conclusions, suggestions and recommendations on ways to eliminate problems in the development of export activities.



**Key words:** *Export activity, export potential, exporting, enterprise, external and internal environment, goods, services, investment, technologies, foreign market, transit, re-export, industry, industrial products, agriculture, supply chain system, refrigerators, intermediaries, economy, export restrictions, raw materials, food, type of goods, exporting enterprises, pre-export operations, export support, financial resources*

## MUNDARIJA

<b>Annotatsiya</b> .....	3
Mundarija.....	7
Keltirilgan jadvallar ro‘yhati.....	9
Keltirilgan rasmlar ro‘yhati .....	10
Keltirilgan qisqartmalar .....	11
<b>BOB. KIRISH</b> .....	12
1.Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	13
2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	14
3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	14
4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	15
5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	15
6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	16
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI</b> .....	18
1.1.Kirish .....	18
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	18
1.3 Mavzuga oid maxalliy meyoriy-xuquqiy hujjatlar sharhi.....	22
1.4 Xulosa.....	27
<b>II BOB. METODOLOGIYA</b> .....	29
2.1. Tadqiqot dizayni.....	29
2.2. Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....	29

2.3 Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar... ..	29
2.4 Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar .....	30
2.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechim,,,,,.....	30
2.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	31
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>32</b>
3.1. O'zbekiston Respublikasi eksport faoliyatining hozirgi holati tahlili.....	32
3.2. Tahlillardan olingan natijalar sharhi .....	43
<b>IV BOB. XULOSA.....</b>	<b>50</b>
4.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	50
4.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari .....	52
4.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar .....	53
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....</b>	<b>55</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	



## KIRISH

Ekspart- tovarlarni xorijlik xaridorlarga sotishdir, bunda mazkur davlatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi. Bugungi kunda iqtisodiyotni eksportsiz tasavvur qilish qiyin albatta, jahon tajribasi mamlakatlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri eksport salohiyatini oshirish ekanini yaqqol ko'rsatmoqda. Davlatningning ichida ishlab chiqarilgan moddiy boyliklar eksport tarkibi milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni bilan bog'liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlarga sanoat mahsulotlari, ayniqsa, mashinasozlik mahsulotlari va texnologiyalar eksport qilish xos bo'lsa, qoloq agrar iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar eksportida xom ashyo va oziq-ovqat asosiy rol o'ynaydi.

Har qanday mamlakat uchun import-eksport va xorijiy davlatlarda boshqa xarajatlarni to'lash uchun zarur bo'lgan chet el valyutasining asosiy manbai hisoblanadi. Mamlakatningning tashqi iqtisodiy siyosatida eksport-import ko'lamini kengaytirish muhim jihat hisoblanib, davlat eksport uchun mo'ljallangan ishlab chiqarishni qo'llab borishning turli shakllarini keng miqyosda qo'llaydi (moliyaviy ko'maklar, soliq imtiyozlari hamda boshqalar, eksportni davlat tomonidan kreditlash) kabi. Mamlakatimizda eksport faoliyatini rivojlantirish borasida bir qancha muammolar ham yo'q emas. Eksport faoliyatida tadbirkorlar, eksportchilar duch keladigan turli muammolar, qiyinchiliklar bo'lishi eksport faoliyatini rivojlanishining sustlashuviga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qabul qilgan farmoni ushbu sustlashuvni bartaraf etishga qaratilgan choralar sifatida qo'llaniladi.<sup>1</sup>

Birinchi navbatda eksport prognoz parametrlarining bajarilishini tizimlik tarzda tekshirib, keyingi yillar uchun eksport prognozini shakllantirish ishlarini amalga oshirish o'rinlidir sababi eksport prognozining kelgusi yillar uchun

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 30-sentabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni